

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

D.D.Baxronov	
Yangilanayotgan O'zbekistonda yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalashda etnomadaniyatning o'рни.....	201
H.S.Ergashev	
Sharq mutaffakirlari ijodida shaxs ma'naviy kamolotiga oid falsafiy qarashlar evolutsiyasi	207
I.T.Boltaboyev	
Temuriylar davri mutaffakirlari tasavvufiy-falsafiy qarashlarida komil insonga oid g'oyalarning rivojlanishida Amir Temurning o'рни.....	212
Sh.O'.Ahrorova	
Jamiyat ma'naviy muhitida madaniyat va san'atning o'рни.....	216
U.X.Xolmatov	
Axboriy kurashlar sharoitda millatlararo munosabatlarni mustahkamlashning milliy-ma'naviy omillari	220
F.B.Rahmonova	
O'zbekistonda xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonliklardan himoya qilishning falsafiy-deterministik tahlili	225
J.Saburov	
Buxoro amirligida tasvuf ilmi uzviyligi va ijtimoy madaniy hayotga uyg'unligi hamda ta'siri	230
B.A.Pulatov	
Harbiy qahramonlik ideallari asosida yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning falsafiy omillari	236
S.S.Evatov	
Musulmon sharqi falsafiy tafakkurining takomil bosqichlari va unga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillar xususida.....	240
A.Sh.Raximov	
Yangi O'zbekistonning ma'naviy yuksalish jarayonida yoshlar vatanparvarligi fenomenining ijtimoiy-falsafiy tavsifi	245
	SIYOSAT
Sh.Ismoilov	
O'zbekistonda ijtimoiy himoya – davlat siyosatidagi ustuvor yo'nalish	249
D.Sh.Mahkamov	
Hakamlik sudi va davlat sudlari o'rtasidagi farqlar	252
R.Nurimbetov	
Shanxay hamkorlik tashkiloti istiqbollari: O'zbekiston yondoshuvlari	255
B.X.Allamurodov	
Digital diplomacy in the foreign policy of Central Asian countries (using the example of Uzbekistan and Kazakhstan)	258
M.B.Nabiyev	
Jamoat birlashmalarining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi.....	265
N.Madumarova	
Kasaba uyushmalari notijorat tashkilotlarning alohida shakli sifatida	269
A.A.Buriyev	
Sudlar orqali intellektual mulk obyektlari bilan bog'liq nizolarni hal qilishning o'рни va bu boradagi xorijiy tajriba	273
D.Mamadjonova	
Siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari	277
A.A.Ahrorqulov	
Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini huquqiy tartibga solish.....	281
	TARIX
Бурҳониддин Чалодиддин	
Мухаммадвалихан Дарвози основатель новой прогрессивной внешней политики.....	285
M.T.Musaev	
Globalashuv sharoitida mafkuraviy tahdidlarning namoyon bo'lishi	292
R.A.Arslonzoda	
Отражение литературной жизни Бухары в “воспоминаниях” Садриддина Айни	297



UO'K: 28-9(1-11)|653|

MUSULMON SHARQI FALSAFIY TAFAKKURINING TAKOMIL BOSQICHLARI VA UNGA TA'SIR KO'RSATGAN ASOSIY OMILLAR XUSUSIDA**ЭТАПЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ФИЛОСОФСКОЙ МЫСЛИ МУСУЛЬМАНСКОГО ВОСТОКА И ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ, ПОВЛИЯВШИЕ НА НЕЕ****THE STAGES OF IMPROVEMENT OF THE PHILOSOPHICAL THOUGHT OF THE MUSLIM EAST AND THE MAIN FACTORS THAT INFLUENCED IT****Evatov Salimjon Sobirovich** 

Farg'ona davlat universiteti Falsafa kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD

Annotatsiya

Jahon va O'zbekistonning sharqshunos, tarixchi va faylasuf olimlarining musulmon Sharqi falsafiy tafakkurining takomil bosqichlari va unga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillar bo'yicha olib borgan izlanishlari, allomalarning ta'limotlari bugungi kun uchun ahamiyatli ekanligidan dalolat beradi. Ayni paytda ushbu ilmiy tadqiqotlar doirasida musulmon Sharqi mutafakkirlarining gnoseologik va teologik ta'limotlari yetarlicha asoslanmagani bois, mazkur maqolada o'rta asr Sharq allomalarning gnoseologik qarashlarining shakllanishi va rivojlanishi masalalari o'rganilgan.

Аннотация

Исследования, проведенные востоковедами, историками и философами мира и Узбекистана об этапах развития философской мысли мусульманского Востока и основных факторах, оказавших на нее влияние, показывают, что учения ученых важны и на сегодняшний день. В настоящее время гносеологические и богословские учения мыслителей мусульманского Востока недостаточно обоснованы в рамках данных научных исследований, поэтому в данной статье рассматриваются вопросы становления и развития гносеологических взглядов средневековых ученых Востока.

Abstract

The research conducted by orientalists, historians and philosophers of the world and Uzbekistan on the stages of development of the philosophical thinking of the Muslim East and the main factors that influenced it, shows that the teachings of scholars are important for today. Currently, the epistemological and theological teachings of the thinkers of the Muslim East are not sufficiently substantiated within the framework of these scientific studies, so this article examines the issues of the formation and development of the epistemological views of medieval scholars of the East.

Kalit so'zlar: Islom dini, islom teologiyasi, gnoseologik qarashlar, musulmon olimlari, falsafiy qarashlar, Abbosiylar davri, Sharq fani va madaniyati, islom madaniyati va falsafasi

Ключевые слова: Исламская религия, исламское богословие, эпистемологические взгляды, мусульманские ученые, философские взгляды, период Аббасидов, восточная наука и культура, исламская культура и философия.

Key words: Islamic religion, Islamic theology, epistemological views, Muslim scholars, philosophical views, Abbasid period, Eastern science and culture, Islamic culture and philosophy.

KIRISH

Islom dinining paydo bo'lishi va uning hukmron mavqega aylanishi bilan islomga asoslangan yangi madaniyat taraqqiy eta boshladi va uning aqidalariga to'g'ri keladigan e'tiqodlar, ta'limotlar va axloqiy normalar arablar tomonidan butunlay yo'q qilindi. Islom teologiyasining shakllanishi uzoq muddat davom etdi va bu jarayon turli millatlar va ularning o'ziga xos madaniyatlaridan tarkib topgan musulmon madaniyati, musulmon sivilizatsiyasining taraqqiy etishi bilan birga kechdi.

Vaqt o'tishi bilan islom dini tarqalgan hududlarning jadal kengayishi, musulmonlarning boshqa din va madaniyatlar bilan yuzlashishi natijasida yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi vaziyatni o'zgartirib yubordi. Yangi sharoitlarda yuzaga kelgan masalalar yechimi uchun Qur'on va hadislardagi dalillar bilan bir qatorda aqliy dalillarga oldingidan ham ko'proq ehtiyoj sezila boshladi[2:8]. Natijada islom dunyosida islom va uning aqidalarini himoyalashga qaratilgan ratsional fikrlash va dalillarga asoslangan islom teologiyasi an'analari shakllana boshladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Musulmon Sharqi falsafiy tafakkuri, gnoseologik qarashlarning shakllanishi va rivojlanishi xususida I.R.Nasirov, B.Vaxobova, M.Boltayev, N.Komilov, E.Karimov, R.Shodiyev, M.Jakbarov, G.Navro'zova, S.Sayfulloh, N.Safarova, X.Salomova, S.S.Buxoriy, G.Yunusovalar tomonidan tasavvuf namoyandalarining ontologik, gnoseologik va antropologik qarashlari, M.Hasaniy, B.Namozov, K.Rahimov, Z.Narziyev, M.Mamatov, Q.Ro'zmatzoda, N.Hasanov, Z.Ishoqova, I.Haqqulov, H.Homidiy, A.Abdullayev, Yo'ldosh Eshbek, K.Rahimov va boshqalarning tadqiqotlarida tadqiq etilgan bo'lsa, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning asarlarida ham islom dunyosining ilmiy faoliyati rivoji, o'rta asrlarda islom madaniyatini shakllanishi va taraqqiy etish jarayonlari tahlil qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'rta asr Sharq allomalarining gnoseologik qarashlarining shakllanishi va rivojlanishida yunon falsafasi, xristian ilohiyoti, hind va fors madaniy merosi bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatganligini G'arb va Sharq olimlari, sharqshunoslari tomonidan e'tirof etilgan. Bu davrdagi gnoseologik qarashlar va fikrlash tarzi suriyaliklar, arablar, eronliklar, turkiy xalqlar, barbarlar va boshqa millat vakillari ishtirok etgan murakkab fikriy jarayon hosilasidir. London imperial kolleji professori Rim Turkmaniy fikricha, "islom tamadduni faqat qadimgi yunon falsafasining saqlab qolgan yo'q. Musulmonlar insoniyat asrlar davomida to'plagan intellektual ilmiy merosni to'liq egallab, nafaqat astronomiya va matematika, balki boshqa barcha bilimlarni o'zlashtirdilar va bashariyatni mutlaqo yangi ilmiy darajaga olib chiqdilar. Arablar g'oyatda qiziquvchan, izlanuvchan odamlar edi. Tarjimachilik harakatining dastlabki yillaridan boshlab Islom olimlari yangi, inqilobiy g'oyalarni ilgari surdilar"[6:61]. Natijada keyinchalik Yevropa madaniyatiga ta'sir ko'rsatgan, ilm-fani uchun nazariy asos bo'lgan meros yaratildi. Ulardan g'arbliklar asrlar davomida foydalandilar.

Shuningdek, o'rta asr Sharqida gnoseologik qarashlarni rivojiga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillardan yana biri, xorijiy mamlakatlardagi turli-tuman asarlarni avvaliga jamlash, tarjima qilish, so'ngra o'rganib, ularga ijodiy yondashish bo'lgan. VIII asrning o'rtalariga kelib, arab xalifaligining chegaralari Sharqda Xitoy, G'arbda Atlantika okeani, janubda Movarounnahr qadar kengayishi natijasida, arablar qadimiy sivilizatsiyalarning makoni sanalgan boshqa xalqlarning ilm va madaniy yodgorliklari bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ldilar va u yerlardagi kitoblarni xalifalikning asosiy shaharlari sanalmish Bag'dod va Damashqda jamlay boshladilar[1:70].

Yana bir muhim jihat shundaki, musulmon olimlari Yevropaga unutilayozgan antik zamon donishmandlarining yozma merosini qaytarib bergan edi. Bu narsa ayniqsa Qadimgi Yunoniston faylasuflari asarlariga taalluqli bo'lib, ular ilk xristian Yevropasi tomonidan rad etilgan va aynan Arab xalifaligi tashkil topganidan so'ng dastlab suryoniy (oromiy), keyin arab va nihoyat lotin tiliga tarjima qilingan edi. Binobarin, bu narsa Abu Nasr al-Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Husayn ibn Tufayl va Abu Volid ibn Rushd singari arab-musulmon faylasuflarining antik zamon mutafakkirlari asarlariga yozgan ajoyib sharhlari bilan yevropaliklar tanishib chiqqanidan keyin ro'y bergan edi. Abu Nasr Forobiy singari Abu Ali ibn Sino ham antik davr faylasuflarining asarlariga murojaat qilib, o'zining falsafiy qarashlarini aks ettiruvchi "Ash-shifo" asarini yozgan. Mutafakkirning mazkur asari haqida fikr bildirar ekan, tadqiqotchi R.R. Isakdjanov "tarixda birinchi marta aristotelizmni sistemalashtirgan asar bo'lib qoldi. XII asrda Yevropada aristotelizmni shuhrat qozonishiga aynan shu asar sababchi bo'ldi. Yevropa universitetlarida aristotelizmni sistemalashtirilgan holda tanishdilar. Mazkur kitobni yana bir jihati, unda yunon intellektual an'analari bilan musulmon an'analari uyg'unlashtirilganligidir" – deb yozgan[4:19]. Abu Volid ibn Rushd (Averroes) shundan keyin Yevropada shu qadar mashhur va ommabop bo'lib ketdiki, hatto "averroizm" – "hayotdan zavqlanuvchi hurfikrlik" yo'nalishini dunyoga kelishiga sabab bo'lgan holda G'arb falsafasi taraqqiyotiga ta'sir o'tkazgan edi. Aytish mumkinki, turli xalq, millat, e'tiqod, fan va madaniyatga tegishli falsafa, tabobat, falakiyot, riyoziyot, geografiya, tarix, adabiyotga oid asarlar arab tiliga o'girilib, butun musulmon olamining intellektual mulkiga aylandi hamda Sharq xalqlari fanining shakllanishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi[1:118].

Ummaviylar davridan ko'ra abbosiylar davrida ilm-fan kuchli rivojlanadi va buning uchun yetarlicha tinch va rag'batlantiruvchi ijtimoiy muhit shakllanadi. Tarixchi olim B.Abduhamidov fikricha, ummaviylar hukmronligida diniy ilmlar va arab tiliga e'tibor berilgan bo'lsa, abbosiylar davrida tabiiy-ijtimoiy va boshqa fanlarga e'tibor kuchaydi[1:10]. Abbosiylar sulolasining intellektual madaniyat yaratish istagi nafaqat Islom dini tarqalgan hududlarda, balki dunyoning barcha burchaklaridagi

olimlarni o'ziga jalb qilardi. Biroq bu degani, ummaviylar davrida ilm-fan rivojlanmadi, deyish unchalik to'g'ri emas. Ummaviylar xonadonidan chiqqan xalifalar deyarli bir asr davomida hokimiyatni mustahkamlash bilan band bo'ldilar. Mazkur jarayon ularning davrida ilm-ma'rifat abbosiylar davridagidan biroz sustroq rivojlanishiga ta'sir etgan bo'lishi mumkin.

Arablar tomonidan Yaqin Sharq, jumladan Iskandariya fath etilgan vaqtda bu shahar yunon falsafasini tadqiq qiladigan muhim markazga aylangan edi. Yunon tilini o'rganish Iskandariyadan o'tgan yunon falsafasini o'rganishdan boshlangan edi. Falsafa va ilohiyot matnlari qatorida mantiqqa doir kitoblar ham arab tiliga tarjima qilingan edi. Yaqub Rahoviyning ilohiyot va falsafaga doir asarlarining yoyilishi erkin fikr mavjudligidan guvohlik beradi. Zero, London imperial kolleji professori Rim Turkmaniy fikricha, "bu yerda musulmonlar, nasroniylar, yahudiylar, sobiylar va boshqa olimlar yonma-yon ishlashgan. Turli maktab vakillari hamkorlik qilgan bu erkin ijodiy muhit ularga yangi-yangi kashfiyotlar qilish uchun barcha sharoitlarni muhayyo etgan"[6:61]. Bunday sharoitlarning natijasi sifatida islom gnoseologiyasi o'zining yuksak namunalarini va natijalarini ko'rsatgan.

O'rta asr Sharq fikriy rivojida falsafiy fikrining takomil bosqichlarini quyidagi davrlarga bo'linadi:

1. Abbosiylar davrida falsafa ilmining shakllanish bosqichi (VIII asrning ikkinchi yarmi va IX asrning birinchi yarmi). Ayniqsa, Ma'mun hukmronligi davrida Bag'doddagi tarjimalar harakati va "Baytul-hikma"dagi Hunayn bin Ishaq, Xubash bin al-Hasan, Sobit bin Kurra, Kusta bin Luka kabi tarjimonlar faoliyati davri. Abbosiylar davrida Bag'dod shahriga asos solinib, u xalifalikning siyosiy markazi bo'libgina qolmay, balki saltanatning iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy markaziga aylantirilgan edi. Abbosiy xalifalar Mansur, Xorun ar-Rashid va Ma'mun davrida ilm-ma'rifatga katta e'tibor berilgan. Masalan, yirik ilmiy markazga aylangan "Bayt al-hikma"ga asos solinib, bu joyda o'z davrining mashhur olimu faylasuflari, tabib, munajjim, musiqachi, me'mor, muhandislari to'plangan edi. Bu davrda arablar, yahudiylar, nasroniylar, forslar, movarounnahrlar va xurosonliklar tomonidan yahudiy, yunon, suryoniy, fors, hind va boshqa tillardagi riyoziyot, falakiyot, mantiq, alkimyo, handasa, tarix, tibbiyot fanlariga oid madaniy, ilmiy-falsafiy asarlar arab tiliga tarjima qilingan. Qadimgi yunon faylasuflari Ptolemeyning "Almajistiy" (Almagest), Yevklidning handasa (geometriya), Aflotun va Arastuning qator asarlari arab tiliga o'girildi. Ayniqsa, Arastuning mantiqqa oid asarlarining tarjima qilinishi Bag'dod ziyolilari dunyoqarashining butunlay o'zgarishiga olib kelgan edi.

IX–XI asrlar musulmon fani va madaniyati tarixida katta yutuqlar va muhim ilmiy kashfiyotlar davri bo'lganligidan, bu davrni ba'zi tadqiqotchilar Sharq fani va madaniyatining "oltin davri" deb e'tirof etadilar. Shu davrda arab xalifaligi tarkibida bo'lgan yirik madaniy markazlar Movarounnahr va Xuroson vujudga kelgan madaniy-ma'rifiy yuksalishni ta'minlashda o'ziga ahamiyatga ega bo'lgan. Bunday fikrlashimizga asosiy sabab shuki, birinchi navbatda, mazkur ilmiy yuksalish shu mintaqalarda yashab ijod etgan mutafakkirlarning hissasiga to'g'ri keladi va ularning asosiy qismi ushbu zamin farzandlari bo'lganligi bilan izohlanadi. Birinchi davr bo'lgan – tarjimachilikning rivojlanishi tom ma'noda islom mintaqasiga o'zgacha fikr va o'zgacha qarashni olib kirdi. "Musulmon xalqlarining fan va madaniyati dastlabki bosqichlarda ko'p jihatdan yunon, hind, fors va boshqa manbalarga tayandi, ulardan ilhom olib, ilk qadamlar tashladi va rivojlandi. Yunon, hind, fors va boshqa qadimiy tillardagi kitoblar asta-sekin ummaviy va abbosiy xalifalar saroyida tarjimachilik faoliyati asosida paydo bo'la boshladi. Bu jarayon, ayniqsa, abbosiylar davrida juda kuchaydi. Aynan Bag'dodda turli ilm va madaniyatlar to'qnashdi hamda bir-birini boyitdi. Natijada o'z ko'lamiga ko'ra, misli ko'rilmagan ilmiy, madaniy, ma'naviy, umuman olganda, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida yuksalish yuz berdi"[6:68]. Demak, islom dini ta'sirida tolerant ijtimoiy muhitning shakllanishi orqali bu fikrlash tarzi sintezlashdi va yanada takomilga erishdi.

2. Falsafa ilmining rivojlanishidagi ikkinchi bosqich (IX–XI asrlar). Bu bosqichda asosan xalifalikning sharqiy viloyatlarida faoliyat yuritgan mutafakkirlar: Abu Yusuf Yakub bin Ishaq al-Kindiy, Ahmad at-Toyyib as-Saraxsiy, Ibn Ravandiy, Abu Bakr Muhammad Zakariyyo ar-Roziy, Abu Nasr al-Forobiy, Abu Ali Ibn Sinolar falsafa ilmiga ahamiyat berganlar va o'zlari ham faylasuf sifatida nom qozonganlar. Falsafa ilmi sof ilmiy faoliyat bo'lgani uchun dastlab islom dini tomonidan inkor qilingan bo'lsa-da, keyinchalik aqliy va mantiqiy mushohadakorlikning o'sishi, ilmiy bahslarning rivojlanib borishi bilan falsafa ilmiga ehtiyoj yuzaga keldi. O'rta asrlar islom uyg'onish davrining yuzaga kelishini islom teologiyasi bilan falsafaning sintezlashuvi hosilasi ekanligini anglash unchalik mushkul emas, aslida. Yunon falsafasi ta'sirida shakllangan arab-musulmon falsafasining mazkur vakillari islomda ilohiyoti, falsafasi va madaniyatini yangi bir cho'qqiga, yuksak maqomga chiqishiga ta'sir ko'rsatdilar.

FALSAFA

3. Islom falsafiy fikri rivojining uchinchi bosqichida (XII–XIII asrlar). Bu davr musulmon Ispaniyasida yashab ijod etgan faylasuflar faoliyatini qamrab oladi. Bu davrda Andalusiylar Ibn Boja, Ibn Tufayl, Ibn Ro'shd kabi faylasuflar islom falsafiy fikr rivojini yangi pog'onaga ko'tardilar. Mazkur mutafakkirlarning falsafiy merosi tufayli xristian sivilizatsiyasi bilan islom ilohiyoti o'rtasida bag'rikenglik, muloqot va munosabat o'rnatildi. Bir birini tushunish, anglash va o'rganish zarurati yuzaga keldi. Ushbu olimlarning asarlaridan, qarashlaridan g'arbcha dunyoqarash va islomiy qoidalar asnosida yangicha ta'limotlarning yaralishini ko'rish mumkin. Shuningdek, Abu Homid al-G'azoliy, Ibn Sab'in, Faxriddin ar-Roziy, ishroqiylik falsafasining asoschisi Shahobiddin as-Suxravardiylar ham bu davr islom teologiyasining yirik namoyandalari hisoblanadi va ularning o'z ilmiy yo'nalishlari, yondashuvlari va ta'limotlari orqali islom teologiyasi yana bir pog'ona yuqoriladi. Ularning qarashlari natijasida islom mintaqasida tabiat va jamiyat, borliq va koinot mohiyatini anglash imkoniyati oshdi va ilmiy meros boyib bordi.

4. Islom falsafasi ta'sirida ijtimoiy fikr rivojining to'rtinchi bosqichi bo'lib, bu davr XIV–XVII asrlarni o'z ichiga oladi. Bu davrda al-Ijijiy, al-Jurjoniyy, at-Taftazoniy, ad-Davoniy, Ibn Xaldunlar faoliyat ko'rsatgan va bu davrda falsafani kalam yo'nalishi bilan birlashuvi ko'zga tashlanadi. Natijada islom mohiyatini anglashga, e'tiqodni mustahkamlashga bo'lgan bahs-munozaralar maydoni yuzaga keldi va islom ilohiyotshunosligi haqiqiy ilmiy maydonga aylandi.

5. Yangi, eng yangi va hozirgi davr islom falsafasi va ilohiyotshunosligi XVIII–XX asrlarni o'z ichiga oladi. Bu davrda Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida Muhammad Abdo, Abdulloh Nadim, Jamoliddin Afg'oniyy, Shoh Ahmad Valiulloh kabi mutafakkirlar musulmon faylasuflari sifatida e'tirof etilganlar va ularning qarashlarida asosan islohotchilik va ma'rifatparvarlik g'oyalari muhim o'rin tutgan. Tarixdan ma'lumki, Usmonli turk hokimiyatining zulm davom etishi bilan birga G'arb davlatlarining ta'siri ostida qolib ketayotgan arab mamlakatlari dunyoqarashida o'zgarishlar bo'la boshladi. G'arb mamlakatlari bilan yaqinlashuv oqibatida arablar, bir tarafdin, G'arb mustamlakachilarining kuchayib borgan tazyiqiga uchraydilar, ikkinchi tomondan, G'arb madaniyati ularning ongiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Arablar mustaqillikni yo'qotgan sari, ularda norozilik va milliy mustaqillik uchun kurash g'oyalari uyg'ona boshladi. Shu bilan birga, ularga Yevropa fan-texnika tafakkuri va madaniyati hamda falsafiy ta'limotlari, ma'rifatparvarlik g'oyalari katta ta'sir ko'rsata boshladi. Shu davr arab namoyondalarining qarashlari va faoliyatida islohotchilik hamda ma'rifatparvarlik, milliy ozodlik va millatparvarlik g'oyalari mujassamlangan edi. Ular din va uni isloh qilishni ham, ilm-ma'rifat tarqatishni, ozodlik uchun kurashni ham birga qo'shib olib borishga intildilar[3:4]. Arab ma'rifatparvarlari Sharq mamlakatlaridagi zaiflik va tushkunlikning asosiy sababini johillik va ma'rifatsizlikda deb bilib, turg'unlik va qoloqlikka qarshi ilm-ma'rifat, tarbiya va axloqni yaxshilash masalalariga diqqat-e'tibor qaratdilar.

O'rta asr sharq fikriy rivoji asosida yuzaga kelgan gnoseologik va teologik faoliyat o'ziga xos fenomen bo'lib, muammolar doirasini taqdim etishda o'z usuli hamda masalalarini hal etishning mezonlari va yondashuvlari mavjud bo'lgan. Bunda asosan musulmon falsafasining barcha yo'nalishlari uchun umumiy bo'lgan va undagi munozaralar mavzusi hisoblangan muammolar majmui shakllandi. U o'z ichiga metafizika (ilk, boshlang'ich asos va uning ko'p dunyolarga munosabati, mavjudlik-nomavjudlik moduslari va ular o'rtasidagi munosabat, sabablilik), bilish nazariyasi (bilish shakllari, hissiy, aqliy va intuitiv bilish), inson haqidagi ta'limot (inson harakat va bilish qobiliyatiga ega bo'lgan mavjudot sifatida, insonning dunyo va ilk negizga (boshlang'ich asosga) amaliy-bilish tarzidagi munosabati) va h.k. masalalarni qamrab oladi. Ushbu muammolar doirasidan kelib chiqib, musulmon falsafasida bu davrlarda faoliyat yuritgan besh asosiy yo'nalish va maktab: kalam, peripatetizmga asoslangan musulmon falsafasi, tasavvuf, ismoiliylik, ishroqiylik falsafiy ta'limotlarini sanab o'tish mumkin"[5:18]. Ularning izlanishlari va harakatlari bilan go'zal islom teologiyasi yuzaga keldi va ilmiy an'analar shakllandi, ilohiyotshunoslikda esa arab-musulmon metodologiyasi yaratildi.

XULOSA

Xulosa qilganda, ilk o'rta asrlarda islom madaniyati va falsafasining shakllanishi va o'zining rivojlanish cho'qqisiga chiqishida yunon ilmiy merosi va xristian dunyoqarashining ta'siri yuqori bo'lgan bo'lsa, o'rta asrlarning ikkinchi va uchinchi davrida sharq madaniyati va ilm-fan yutuqlari G'arb olamiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda, Yevropaga islomning madaniy sohadagi ta'sirining muhim bir qismi Eron, Hindiston, Xitoyning madaniy yutuqlarini, binobarin, sintezlashgan va takomillashgan ko'rinishida ular tomonidan yevropaliklarga yetkazib berilishi sanaladi. Pireney

tog'laridan to Tibet tog'lariga qadar cho'zilib ketgan arab-musulmon olami Yevropa g'arbi va Osiyo sharqi o'rtasida tabiiy bir vositachi bo'lganday go'yo. Lotin tiliga tarjima qilingan Ali at-Tabariy, Hunayn iyun Ishaq ar-Roziy va ayniqsa, Abu Rayhon al-Beruniyning asarlari, shuningdek, ko'pgina arab mualliflarining kitoblarida qoida tariqasida Eron, Hindiston va boshqa turli mamlakatlar olimlarining yutuqlari arablarning o'zlari ochgan kashfiyotlar bilan birikib ketgan holda taqdim etilgan edi. Shunday bo'lsa-da, qaysidir hind, eron va boshqa ilmiy asarlar boshida arab tiliga, keyin esa lotin tiliga tarjima qilingan hollar ham kam emasdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abduhalimov B. Bayt al-Hikma va Markaziy Osiyo olimlarining Bag'doddagi ilmiy faoliyati. – Toshkent: O'zbekiston, 2010.
2. Abdullayev A.G'. Imdan boshqa najot yo'q.. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2017.
3. Babayeva E. Ma'rifat yo'lida. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
4. Isakdjanov R.R. Ibn Sino teologik ta'limotida gnoseologik tamoyillar. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2020.
5. Sayidahmedova A.S. Islom falsafasida gnoseologik masalalar talqini (Kalom ilmi vakillarining qarashlari asosida). F.f.n. ... diss. avtoreferati. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2009.
6. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Olam va odam, din va ilm. – Toshkent: "Hilol-nashr" nashriyoti, 2019.